



## G‘AFUR G‘ULOM SHE‘RIYATIDA OBRAZLILIK, FALSAFIYLIK VA BADIY MUKAMMALLIK

(Shoirning “Vaqt” she’ri tahlili misolida)

*Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek  
tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Amirqulova Dilafro‘z*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi, adibning “Vaqt” she’ri mazmun va mohiyati, she’rda keltirilgan obrazlar haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. G‘afur G‘ulomning yuksak mahorati va falsafiy fikrlari, uning g‘oyalari yo‘g‘rilgan ijod namunalariga nazar solamiz. Shuningdek maqolada adibning bizga qoldirgan adabiy merosi haqida batafsil ma’lumotlar beriladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Lirika, she’r, ijod, falsafiylik, obrazlilik, vaqt, bashariyat, millar.

**ANNOTATION.** This article provides detailed information about the life and work of Gafur Ghulam, the content and essence of the writer's poem "Time", the images presented in the poem. We will look at Gafur Ghulam's high skill and philosophical thoughts, examples of creativity in which his ideas were embodied. The article also provides detailed information about the literary heritage left to us by the writer.

**KEYWORDS:** Lyrics, poetry, creativity, philosophy, imagery, time, humanity, miles.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена подробная информация о жизни и творчестве Гафура Гулама, содержания и сути стихотворения писателя «Время», образах, представленных в стихотворении. Мы рассмотрим высокое мастерство и философские взгляды Гафура Гулама, примеры



творчества, в которых воплотились его идеи. В статье также содержится подробная информация о литературном наследии, оставленном нам писателем.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Тексты песен, поэзия, творчество, философия, образность, время, человечность, мили.

### KIRISH.

O‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri G‘afur G‘ulom 1903- yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontegi mahallasida tavallud topgan. G‘afur G‘ulomning otasi ham savodli inson bo‘lgan. U o‘zbek va tojik mumtoz adabiyotini o‘qigan, rus tilini bilgan. O‘zi ham she‘rlar yozgan. To‘qqiz yoshida otasidan o‘n besh yoshida onasidan ayrilgan. Avval eski maktabda, so‘ngra rus-tuzem maktabida ta‘lim olgan. U oktyabr to‘ntarishidan keying yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi maktablarda o‘qituvchilik qilgan. 1923-yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so‘ng “Kambag‘al dehqon”, “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” gazetalarida ishladi. Gazeta uning uchun dorilfunun rolini o‘tadi. Xalq hayotiga faol aralashishida muhim vosita bo‘ldi. G‘afur G‘ulom 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a‘zo bo‘ldi. G‘afur G‘ulom ijodi 1923-yildan boshlanadi. Adib 1923-yilda “Feliks farzandlari” she‘rini yaratadi. Unda yetim bolalat taqdiri haqida gapiradi. “Maorif va o‘qituvchi” oynomasida esa “go‘zallik nimada?” nomli ikkinchi she‘ri nashr qilinadi. G‘afur G‘ulom adabiyotning barcha janrlarida ijod qilgan adibdir[2]. Ijodkorning bir qancha feleton, qissa, roman va she‘riy to‘plamlari bor. G‘afur G‘ulomning she‘rlari fikrlarning teranligi va maqsadliligi bilan alohida ajralib turadi. Atoqli adib urushning oqibatlarini ko‘rib ulg‘aygan. Uning asarlarida urushning oqibatlari, xalqning ma‘naviy va ijtimoiy ahvoli tasvirlangan. She‘rlarida insonlarning qadr-qimmati, mehr – oqibati, sog‘inch va iltijo kabi tuyg‘ulari chiroyli tasvirlar orqali ifodalangan[2].



## ASOSIY QISM

Gʻafur Gʻulom noyob isteʼdod egasidir. Adib ham shoir, ham mohir yozuvchidir. Bu kabi holat ijodkorlar orasida har doim ham kuzatilavermaydi. Gʻafur Gʻulomning sheʼrlarida mamlakatni himoya qilish, oʻtmish sarqitlarini qoralovchi hajviyalari va xalqning kundalik turmush tarzidagi voqealari, mehnatkash xalqning zahmatlari asosiy oʻrinda turadi. Shoirning “Dinamo”, “Tirik qoʻshiq” nomli dastlabki sheʼriy toʻplamlari 1931-1932 yillarda chop etilgan. Adib urush yillarida urushni qoralab koʻplab sheʼrlar yozdi. Uning “Sogʻinish”, “Sen yetim emassan”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Biri biriga shogirt, biri biriga ustod”, “sizga”, “Bahor taronalari” kabi sheʼrlari shular jumlasiga kiradi. Ularda yurt, xalq, kelajak masʼuliyati tasvirlanadi. Shuningdek Gʻafur Gʻulom insonga xos mangu tuygʻularni “Qish va shoirlar”, “Non”, “Toshkent”, “ Qutbda saylov”, “Men yahudiy”, “Qish”, “Xotin”, “Afsuski, afsusni qoʻshib koʻmmadi” singari sheʼrlarida aks ettirgan boʻlsa, “Bogʻ”, “Sogʻinish”, “Kuz keldi”, “Kuz koʻchatlari” singari sheʼrlarida obod bogʻ, saxiy bogʻbon, umiddagi kelajak gavdalanadi[4]. Adibning “Vaqt” sheʼri har bir insonning kundalik madhiyasiga aylanib ulgurgan. Negaki, unda vaqtning sarhisobi har bir lahzaning bebaho ekanligi taʼkidlangan.

### Vaqt

Gʻuncha ochilguncha oʻtgan fursatni  
Kapalak umriga qiyos etgulik,  
Baʼzida bir nafas olgulik muddat-  
Ming yulduz soʻnishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapkiri  
Har borib – kelishi bir olam zamon.  
Koinot shu zamon oʻz qoʻrasidan



Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,  
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;  
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam qimmat,  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
Barini tutaolmas ayuhannos ovoz.

Yigit termuladi qizning ko'ziga,  
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...  
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi  
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan,  
Zarhal kitob kabi ochilur olam.  
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,  
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz,  
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.  
O'zbekning barhayot avlodlarimiz,  
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek,



Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.  
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,  
Zamon qo'rasining s'nmas cho'g'imiz.

Zamona soati zang urar mudom,  
Minglab hodisalar minutlarga qayd,  
Qahramon tug'ildi, shahar olindi,  
Bir gigant qurildi sharaflı bu payt.

Reyxstag ustiga g'alaba tig'in  
Qadashga otilgan g'alaba 'qi-  
Yalt etgan umri-la barqaror qildi  
Basharning muqaddas oliy huquqin.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning  
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...  
Shu mal'un imzoda odamlar o'qur  
Million yil fashistning umriga lan'at.

Aziz asrimizning aziz onlari,  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.  
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la  
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,  
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,  
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,  
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.



Har lahza zamonlar umridek uzun,  
Asarlar taqdiri lahzalarda hal.  
Umrдан o‘tajak har lahza uchun,  
Qudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g‘animatdur, umrzoq soqiy.  
Quyoshki falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

Faylasuf G‘afur G‘ulom “Vaqt” she’ri bilan barchamizga ma’lum bo‘lgan g‘unchaning ochiladigan davrini kapalakning bir kun yashashiga misol qilib oladi. G‘unchaning ochilishi uchun bir kun vaqt ketadi. Har bir narsaning o‘z vaqti-soati bor. Shoirning faylasufona qarashi ham aynan shunda. Ijodkor vaqtning qanchalik qadrlil bo‘lmasin tez fursatda o‘tib ketishini ta’kidlaydi. Ba’zida esa bir nafas olgudek muddatning o‘tishi davomida bir qancha insonlarning yulduzi so‘nishi mumkin. Shoir insonlarning umr soatini soatning millariga qiyos etib hayotning “oltin kapkiri” deb ataydi. Bu ham bejizga emas. Oltin kapkir o‘z qozonida aylanar ekan umr ham bamisoli shamoldek o‘tib ketadi. Soatning millari sekund, minutlardan o‘tar ekan koinot o‘zgarib, yangilanib o‘zi uchun yangi kashfiyotlarni qiladi. Ijodkor vaqtning har bir soati g‘animat ekanligini hamda shu vaqt ichida insonlarning tug‘ilishi, shu vaqt ichida olamdan o‘tishi yoki yashashi mumkinligini, o‘tayotgan har bir fursat g‘animat va qimmat ekanligini anglab yetmoqqa chaqiradi. Bosib o‘tayotgan har bir onimiz butun umrimizni tashkil etishi mumkin va biz uchun butun bir bahorni in’om etishi mumkin. Biz nafas olayotgan shu daqiqamiz bizning bir kunimizni balki butun umrimizni tashkil etar. Vaqt shunday chopqir otki, uning tezligini o‘lchash uchun hali asbob yaratilmagan. Uning bahosini ham hech qanday tosh-u tarozi bilan o‘lchay olmaymiz. Xoh uning toshlari olmos-u, tarozisi oltindan bo‘lsin bizning bunga kuchimiz yetmaydi. Adib vaqtning sekund lahzasini quyosh



nuriga o‘xshatadi. Uni qo‘l bilan ushlab yoki tutib bo‘lmaydi. Har vaqtning o‘z qadri va shukhi bor. U insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydi. Balki uni shunchaki his qilish mumkin. Har kim undan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Shunday ekan, ikki yoshning bir – biriga bo‘lgan muhabbati ham lahzalarning sovg‘asidir. Muhabbat aslida yuksak tuyg‘u. Shoir inson qalbidagi muhabbatni yuksak baholaydi. Shoir “Vaqt” she’ri orqali inson dunyoga keldimi u vaqt o‘tgani sayin o‘sib- unadi. Har bir inson bu hayotga kelganida u umrguzaronlik qilishi, yashashi uchun ma’lum muddat berilishi haqida fikr yuritadi. Inson hayoti davomida o‘ziga berilgan fursatni qanday o‘tkazishni o‘zi hal qiladi. U hayot ekan umrining bezagi va ziynati hayotining mazmuni u bajarayotgan mehnat hisoblanadi. Ularni aziz qiluvchi dam esa fursatdir. Har kim o‘z fursatini qadrlashi va o‘z vaqtida undan foydalana olishni bilishi zarur. Badiiy adabiyot insonni- hazrati inson darajasiga ko‘taradi. Uning mukammalligi shaxsning komil insonlik darajasi bilan o‘lchanadi. Yuqoriga qaraganimizda cheksiz osmonu falakni ko‘ramiz uning nihoyasiga yetib bo‘lmaydi. Insonning his-tuyg‘ulari ham huddi shunday.

Qatrada osmon aks etgandek

Jahonday ma’nodor qorachig‘imiz.

Shoir insonlarning ko‘zlarini osmonga qiyoslaydi. Ya’ni insonlarning ko‘ziga boqsangiz chuqur ma’noni anglab olasiz. Insonning qalbidagi o‘ylari uning ko‘zlarida namoyon bo‘ladi. Uning ham osmon kabi poyoni yo‘q.

“Vaqt” she’rida Ikkinchi Jahon urushi tugashi munosabati bilan ijodkor nemisning generali imzo qo‘yishi uchun ketgan vaqtni bayon qiladi. Urushning sovuq nafasi sabab ko‘plab insonlar hayotdan bevaqt ko‘z yumdi. Nemisning generali taslim bo‘lish uchun imzo qo‘yishiga uch sekund ketgani va insonlar shu uch sekund uchun o‘z jonini qurbon qilganliklarini bayon etadi. Adib bu bilan insonlarning bajarayotgan yovuz ishlari ular uchun naf keltirmasligi, oxiri yomon



oqibatlarga olib kelishini tushuntirmoqchi bo‘ladi. Adib insonlarni yaxshilikka, birdamlikka chaqiradi. Har bir lahzaning qadriga yetishga undaydi. O‘tayotgan har bir fursatni g‘animat bilib undan yaxshilik yo‘lida foydalanishimizni aytadi. Umrimizning daftarini chiroyli amallar bilan bilan bezashimiz lozimligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, o‘z davrining buyuk mutafakkirlari goh ilm-fan, goh san’at, goh falsafada ulkan natijalarga erishayotgan pir paytda undan ichi kuygan Gerostrat degan kimsani misol qilib keltiradi. Odamlar uni ham doimo yo‘qlab turishadi. Yaxshilik yo‘lida arzirli biror ish qo‘lidan kelishiga ishonmay ulkan buzg‘unchilik, vahshiylikka qo‘l uradi. Dunyo arxitekturasining noyob namunalaridan biri bo‘lgan Diana-ma’badi ibodatxonasiga o‘t qo‘yadi. Qarabsizki, insoniyatning yodida muhrlanib qoladi[117b]. Ammo tarixda abadiy qolish uchun bu kabi razilikka qo‘l urish shart emas, shunchaki insonlarga nafi tegadigan madaniyat o'chog'ini barpo etishi yoki yurt uchun vidoiy inson bo‘lishning o‘zi yetarliligini ta’kidlaydi.

### XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, G‘afur G‘ulom o‘zining “Vaqt” she’ri bilan lahzaga abadiy haykal qo‘yadi. Vaqtning tez fursatlarda o‘tib ketishi va juda ham qadrlil ekanligini tasvirlaydi. Adib she’rida insonlarni osmonga, soat millarini esa majoziy ma’noda insonning taqdiri ya’ni qozonidagi oltin kapkarga o‘xshatadi. Lahzalarning abadiy emasligi, har bir kishi uchun ma’lum muddat berilganligini falsafiy ohangda tasvirlaydi. Xattoki, birgina gulning ochilishiga bir kun, nozik kapalakning hayotda yashashi uchun ham bir kun vaqt beriladi. Shunday ekan har bir inson vaqtning qadriga yetishi, uni to‘g‘ri taqsimlashi lozim.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

1. O. Sultonmurod, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov. 8-sinf Adabiyot darslik. G‘afur G‘ulom. T.2019-y
2. S. Mamajonov. Shoir va zamonaviylik. Fan. T. 1963-y



3. O. Sharafiddinov. Xalq baxtining otashin kuychisi.
4. G'.G'ulom. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik.2-jild.T.1957-y
5. Yo'ldoshev. So'z yolqini. T.2018-y
6. Shokirova. O'zbek adiblari. T.2016-y.
7. Arboblار.uz 2026